

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA FANINI  
O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK VA AXBOROT  
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И  
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ  
БИОЛОГИИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ**

**USE OF NEW PEDAGOGICAL AND INFORMATION  
TECHNOLOGIES IN TEACHING BIOLOGY IN HIGH SCHOOLS**

*Amonov Sadridin Maxmayusuf o'g'li,*

*Mamashukurov Abdunabi Uraqovich*

*Annotatsiya. Bugungi zamonaviy ta'limni o'qitishning interfaol metodlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dars mazmunini ochib beruvchi interfaol usullar ham talabaga, ham pedagogga amaliy ko'makchi vazifasini o'tamoqda. An'anaviy darsdan farqli o'laroq metodlar dars jarayoniga jon kiritib, eng muhimi o'quvchilar ongni rivojlantirmoqda. Natijada o'quvchi sherigining soyasida qolib ketmasdan, o'z nuqtai nazarini barchaga yetarlicha bayon eta oladi. Shuning uchun interfaol usullar darsning jon tomiriga aylanmoqda. Ushbu maqolada ushbu metodlardan namunalar asosida izlanishlar olib borilib, ularning o'qitish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlari: metod, o'qitish metodikasi, interfaol metod, uslub, o'quvchi, maktab, dars, didaktik usullar.*

*Аннотация. Современное образование невозможно представить без интерактивных методов обучения. Интерактивные методы, раскрывающие содержание урока, служат практическим помощником как ученику, так и учителю. В отличие от традиционного урока, эти методы оживляют процесс урока, а главное, ученики развивают свои мышления. В*

*результате каждый ученик способен достойно изложить свою точку зрения каждому, не оставаясь в тени своего партнера. Поэтому интерактивные методы становятся основой урока. В данной статье на основе примеров этих методов проводятся исследования и анализируется их значение в учебном процессе.*

**Ключевые слова:** *метод, методика обучения, интерактивный метод, стиль, ученик, школа, урок, дидактические методы.*

**Annotation.** *Today's modern education cannot be imagined without interactive teaching methods. Interactive methods that reveal the content of the lesson serve as a practical assistant for both the student and the teacher. Unlike a traditional lesson, methods bring life to the lesson process, and most importantly, students develop their minds. Now the student is able to adequately express his point of view to everyone, not shadowing in the shadow of his partner. Therefore, interactive methods are becoming the lifeblood of the lesson. In this article, research is conducted on the basis of examples of these methods, and their importance in the teaching process is analyzed.*

**Key words:** *method, teaching methodology, interactive method, style, student, school, lesson, didactic methods.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, har qanday sohada bo'lgani singari ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonunida ta'lim-tarbiya jarayonida o'qitishning ilg'or shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik va axborot vositalarini joriy etilishini ta'minlash, ta'lim tashkilotlarida kadrlarning kasbiy mahorati va tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish, mavjud o'quv rejalari va o'quv dasturlarini takomillashtirish, o'qitishning innovatsion shakllari va zamonaviy usullari, axborot

texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim sifati va samardorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri etib belgilangan [1].

Hozirgi kunda barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Shuni inobatga olib, ta'lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot qilish, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib bormoqda. Binobarin, ta'lim muassasalarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda [3].

Eng avvalo, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga, ta'lim sifati va samardorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari sifatida interfaol metodlarni qo'llash dars samardorligini oshirishga katta yordam berishini bilishimiz kerak bo'ladi [2]. Demak, interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin ko'rgazmali matreal va videoroliklar soni ko'pligi, shu bilan birga amaliy, laboratoriya ishlari va loyha ishlarining bo'lishi o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samardorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Quyida eng ilg'or pedagogik interfaol usullardan namuna keltirib tahlil qilar ekanmiz, bu usullarning amaliy ahamiyati, foydasi dars jarayonidagi yutuqlarini o'rganib ular haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida biologiya darslarini o'qitishda o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tizimlashtirish, olingan bilimlarining

mustahkamligini ta'minlash maqsadida Klaster usulidan foydalanish muhim o'rin tutadi.

**Klaster - cluster** - ingliz tilida shajara degan ma'noni anglatadi. Ushbu lokal texnologiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirgan va o'zlashtiradigan bilimlar, g'oya, nazariya, qonuniyat va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishini anglash, bir-biriga uzviyligini tushunishga zamin tayyorlaydi va shu bilan birgalikda tahliliy-tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib beradi (1-rasm).



1-rasm. Klaster usulining sxemasi.

*Klasterni tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:*

- O'tiladigan mavzu yuzasidan muayyan g'oya doska yoki qog'ozga yoziladi;
- Ushbu g'oya bilan bog'liq qonuniyatlar, tushunchalar bir-biriga bog'liqlik holati ko'rsatkich bilan belgilanadi, so'ngra mazkur qonuniyat va tushunchalarning faktik ma'lumotlari grafik tarzda yoziladi va tarmoq hosil qilinadi.

• Avval o'rganilgan mavzu va o'rganiladigan mavzu o'rtasidagi bog'lanishlar haqida xulosa chiqariladi.

Biologiya darslarida Klaster usulidan foydalanishda o'quvchilar teng sonli kichik guruhlariga ajratilib, ularga o'quv topshirig'ining didaktik maqsadi va bajarilish tartibi tushuntirilgandan so'ng, ular ajratilgan vaqt ichida fikrlarini jamlab, o'zlari tuzgan klasterlarni himoya qilib, fikrlarini dalillashga imkon yaratiladi va eng yaxshi va asosli tuzilgan klaster aniqlanib, g'oliblar rag'batlantiriladi.

Klasterlarni bitta mavzu yoki bob bo'yicha yaxlit tuzish o'quvchilarning tizimli fikr yuritishiga zamin yaratadi. Klasterlarning asosida asosiy g'oya yoki tushuncha o'rin oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayonidagi interaktiv usullar o'qituvchi faoliyatini belgilovchi holatdir. Umumta'lim maktablarida biologiya darslarini o'tishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini erkin bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, o'quvchilar o'rtasida sog'lom muloqot qilish, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Umumta'lim maktablarida biologiya darslarini o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan «Keys», «Insert», «Waster», Venn diagrammasi, «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Atamalar zanjiri», «Atamalar varag'i» va o'qitishning boshqa samarali usullari, hamda tezkor o'yinlar va o'yin mashqlarining turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni. Toshkent, 2020.
2. Avlayev O.U., Jo‘rayeva S.N., Mirzayeva S.P. “Ta’lim metodlari” o‘quv uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent, 2017.
3. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O‘z MU. 2003, 66 b.